

“TASDIQLAYMAN”

Migratsiya
agentligi direktori



B. Musaev

“9” fevral 11-son

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligining 2026-yilga mo‘ljallangan

ISH REJASI

T/r	Tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
I. Migratsiya sohasida 2026-yilga mo‘ljallangan maqsadli vazifalar.			
a). Sohani rivojlantirish va ustuvor yo‘nalishlarda maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish.			
1.1.	“O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni doirasida qonuniy migratsiya bo‘yicha chora-tadbirlarni (95 maqsad) o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	har oy yakuni bilan	Tashkiliy va ijro intizomi, strategik rejalashtirish va KPI bilan ishlash boshqarmasi, tarkibiy bo‘linmalar
1.2.	Mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq havflarni kamaytirish tadbirlarni belgilab borish. (Mamlakatning suveren kredit reytingini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar 16-bandi, VM., 31.07.2025-y., 03/1-2579-son topshirig‘i).	2026-yil 1 chorak	Tashkiliy va ijro intizomi, strategik rejalashtirish va KPI bilan ishlash boshqarmasi, Yuridik bo‘lim

T/r	Tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
1.3.	<p>Vazirlar Mahkamasining 2026 yil 1-yarim yillik va 2-yarim yillik ish rejaları asosida Migratsiya bo'yicha Respublika komissiyasi majlislariga yig'ma materiallarni tayyorlash va komissiyaga kiritib borish. (Majlis kun tartibi bo'yicha materiallarni Vazirlar Mahkamasi mas'ul departamentlari bilan birgalikda tayyorlash va kiritish).</p>	reja-jadval va reglament asosida	Tashkiliy va ijro intizomi, strategik rejalashtirish va KPI bilan ishlash boshqarmasi, tarkibiy bo'linmalar
1.4.	<p>Sohani rivojlantirish va ustuvor yo'nalishlarda maqsadli ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida tarkibiy bo'linmalarning yillik axborotlarini tashkil qilish. Har bir boshqarma va tarkibiy bo'limlar tomonidan 2026-yil uchun ustuvor maqsadlar va rejalar, "tarmoq jadvallari" ishlab chiqish va rahbariyatga himoya qilinishini ta'minlash.</p>	2026-yil yanvar oyi	Tashkiliy va ijro intizomi, strategik rejalashtirish va KPI bilan ishlash boshqarmasi, tarkibiy bo'linmalar
1.5.	<p>Migratsiya sohasida statistik axborotlarni shakllantirib borish, hamkor vazirlik va idoralar bilan informatsion aloqalarni kengaytirib borish. Tayyorlangan axborot materiallarini Agentlik rasmiy sayti va axborot kanallariga joylashtirish.</p>	davriy	Tashkiliy va ijro intizomi, strategik rejalashtirish va KPI bilan ishlash boshqarmasi, Axborot xizmati
b). Strategik rejalashtirish va KPI bilan ishlash.			
1.7.	<p>Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi sohasida "maqsad - harakat - natija" zanjiri asosida strategik ahamiyatga ega hujjatlarni ishlab chiqish, monitoring qilish va baholashni o'z ichiga olgan strategik rejalashtirish va rivojlanish tizimini amalga oshirish. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 30.10.2025-y., PF-201 Farmoni)</p>	2026-yil 1 chorak (kelgusida doimiy)	Tashkiliy va ijro intizomi, strategik rejalashtirish va KPI bilan ishlash boshqarmasi
1.8.	<p>Migratsiya sohasida strategik rejalashtirish hujjatlari loyihalarini ishlab chiqishda strategik rejalashtirishning asosiy prinsiplari va talablariga, strategik rejalashtirish hujjatlari iyerarxiyasiga muvofiqligini ta'minlab borish.</p>	2026-yil davomida	Tashkiliy va ijro intizomi, strategik rejalashtirish va KPI bilan ishlash boshqarmasi, Yuridik bo'lim
1.9.	<p>Agentlik direktori va o'rinbosarlarining 2026-yil uchun faoliyatining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (progressiv va regressiv), ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha "yo'l xaritasi" va shaxsiy ish rejalarini ishlab chiqish. (Maqsadli ko'rsatkichlar ijrosi bo'yicha "samaradorlik.uz" elektron platformasiga kiritib borish, VM., 6.01.2026-y., 07-15-20 topshirig'i).</p>	2026-yil yanvar oyi	Tashkiliy va ijro intizomi, strategik rejalashtirish va KPI bilan ishlash boshqarmasi, tarkibiy bo'linmalar

T/r	Tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
1.10.	Tashqi mehnat bozorida shakllanayotgan migratsiya tendensiyalari (demografik prognozlar, iqlim o'zgarishi va boshqa omillar), qonuniy va tartibli mehnat migratsiyasining qisqa va uzoq muddatli istiqbollari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.	2026-yil 1 chorak (kelgusida doimiy)	Tashkiliy va ijro intizomi, strategik rejalashtirish va KPI bilan ishlash boshqarmasi, tarkibiy bo'linmalar
1.11.	Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilotining "O'zbekistonda bandlikni qo'llab-quvvatlash hamda barqaror strategik rivojlantirishda demografik va migratsion jarayonlarni kompleks baholash" qo'shma loyihasi doirasida 2026 yil uchun " demografik atlas " va mobillikni baholash mezonlari ishlab chiqishda migratsion jarayonlarni kompleks tahlil qilishda ishtirok etish. Respublika hududlarida migratsiya balansini shakllantirish, mehnat migratsiyasi jarayonlarini to'g'ri boshqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha tashkiliy tadbirlarda ishtirok etish. (Qoraqalpog'iston R. Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan tashkiliy ishlar va tadbirlarni belgilash).	2026-yil davomida	Tashkiliy va ijro intizomi, strategik rejalashtirish va KPI bilan ishlash boshqarmasi, hududiy filiallar
1.12.	Har bir viloyat, shuningdek migratsiya oqimi yuqori shakllangan tumanlar kesimida " migratsion portret " (obyektivka, tezis, dinamika) tayyorlash, tartibli migratsiyani samarali yo'lga qo'yish bo'yicha takliflar tayyorlash . (Mamlakat rahbarining viloyatlarga tashriflari, Administratsiya va Vazirlar Mahkamasi ishchi guruhlari manzilli o'rganishlari doirasida hududlarni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritalari" loyihalariga takliflarni taqdim qilib borish).	2026-yil 1 chorak (kelgusida doimiy)	Tashkiliy va ijro intizomi, strategik rejalashtirish va KPI bilan ishlash boshqarmasi, hududiy filiallar
II. Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirib borish.			
2.1. Mehnat migratsiyasi sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish.			
2.1.1.	Ishga joylashtirish bo'yicha xorijiy davlatlar bilan hukumatlararo va idoralararo kelishuvlar sonini 22 tadan 40 taga yetkazish. (“O‘zbekiston-2030” strategiyasi 95-maqsadi doirasida)	kelishilgan holda	Xalqaro hamkorlik va reytinglar bo'limi (Tashqi ishlar vazirligi bilan hamkorlikda)

T/r	Tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
2.1.2.	<p>PQ-367-son qarorda (4-ilova) belgilangan davlatlar bilan migratsiya sohasida keng hamkorlik to'g'risidagi hukumatlararo kelishuvlar loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>Yaponiya, Shvetsiya, Bolgariya, Avstriya, Xorvatiya, Gretsiya, Norvegiya, Sloveniya, Serbiya va Ummon Sultonligi davlatlari bilan migratsiyaga oid hukumatlararo va idoralararo bitimlarni imzolash choralarini ko'rish.</p> <p>(PA., 15.01.2026-y., 4-son videoselektor bayoni topshiriqlari)</p>	kelishilgan holda	Xalqaro hamkorlik va reytinglar bo'limi (Tashqi ishlar vazirligi bilan hamkorlikda)
2.1.3.	<p>Migratsiya agentligi delegatsiyasining xorijiy mamlakatlarga tashriflari dasturlari va reja-jadvallarni ishlab chiqish.</p> <p>Reja-jadvallarni oldindan shakllantirish, vakolatxonalar bilan uchrashuv obyektlari, manzillari, kun tartibini oldindan muvofiqlashtirish va tayyorlash; har bir xizmat safari uchun yagona materiallar to'plamlarini tayyorlash.</p>	reja-jadval asosida	Xalqaro hamkorlik va reytinglar bo'limi (Tashqi ishlar vazirligi bilan hamkorlikda)
2.1.4.	<p>Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO), Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (IOM), Xalqaro migratsiya siyosatini rivojlantirish markazi (ICMPD) va boshqa tashkilotlar bilan mehnat migratsiyasi sohasini takomillashtirishga qaratilgan qo'shma tadbirlarni o'tkazib borish.</p>	kelishilgan holda	Xalqaro hamkorlik va reytinglar bo'limi (Tashqi ishlar vazirligi, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda)
2.1.5.	<p>O'zbekistonning xavfsiz va tartibli migratsiya modelini xalqaro hamjamiyatga taqdimot qilish maqsadida "Mehnat migrantlari va ular oilalarining ijtimoiy - huquqiy himoyasi" mavzusidagi xalqaro forumni tashkil etish.</p> <p>Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (IOM) va Xalqaro migratsiya siyosatini rivojlantirish markazi (ICMPD) bilan hamkorlikda, Toshkent shahrida.</p>	2026-yil aprel oyi	Xalqaro hamkorlik va reytinglar bo'limi (Tashqi ishlar vazirligi, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda)
2.1.6.	<p>"Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (IOM) va Xalqaro migratsiya siyosatini rivojlantirish markazi (ICMPD) bilan hamkorlik qilishga doir 2026-2027-yillar uchun qo'shma harakatlar rejasi"ni ishlab chiqish.</p> <p>(O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik Kengashi kotibiyati bilan kelishuv uchun kiritish).</p>	2026-yil mart oyi	Xalqaro hamkorlik va reytinglar bo'limi (xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda)
<p>2.2. Tashqi mehnat bozorini o'rganish va xorijiy ish beruvchilar bilan ishlash.</p>			

T/r	Tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
2.2.1	O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik muassasalari bilan aniqlangan yangi ish o'rinlari va ishchi vizalarining sonini oshirish bo'yicha erishilgan natijalar, birinchi yarim yillikdagi vazifalar yuzasidan "yo'l xaritasi"ni tasdiqlash bo'yicha VKA yig'ilishlarini o'tkazib borish.	2026-yil davomida (choraklar kesimida)	Xorijiy ish beruvchilar bilan ishlash boshqarmasi (Tashqi ishlar vazirligi, bilan hamkorlikda)
2.2.2.	Xorijiy davlatlarning salohiyatli ish beruvchi va rekruting agentliklari bilan muzokaralar o'tkazish, istiqbolli kelishuvlar natijasida hamkorlik shartnomalarni imzolash , geografiyani kengaytirish orqali O'zbekiston fuqarolarini ishga jalb qiladigan xorijiy davlatlar sonini 30 taga yetkazish. Xorijiy hamkorlar sonini 224 tadan 300 taga yetkazish choralari ko'rish. (VM., 10.12.2024-y., 136-son bayon).	2026-yil davomida (choraklar kesimida)	Xorijiy ish beruvchilar bilan ishlash boshqarmasi (Tashqi ishlar vazirligi, elchixonalar, konsulliklar bilan hamkorlikda)
2.2.3.	Kanada, Ispaniya, Portugaliya, Shvetsiya, Finlyandiya, Ruminiya, BAA bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish va yangi mehnat bozorlarini yo'lga qo'yish maqsadida "G2B" mehnat forumlarini tashkil qilish.	xorij tomoni bilan kelishilgan holda	Xorijiy ish beruvchilar bilan ishlash boshqarmasi, Xalqaro hamkorlik va reytinglar bo'limi, (Tashqi ishlar vazirligi)
2.2.4.	Fors ko'rfazi, Amerika qi'asi, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Koreya va boshqa yuqori ish haqi to'lovchi davlatlardagi yirik kompaniyalar bilan muzokaralarni jadallashtirib, 350 mingta ish o'rinlari topish choralari ko'rish. (Agentlik - 186,6 ming, xorijdagi vakolatxonalar - 53,4 ming, elchixonalar - 63,4 ming, konsullik muassasalari - 46,6 ming, VM., 05.12.2025-y. 1-son bayoni).	2026-yil davomida (choraklar kesimida)	Xorijiy ish beruvchilar bilan ishlash boshqarmasi (Tashqi ishlar vazirligi, elchixonalar, konsulliklar bilan hamkorlikda)
2.2.5.	Har bir davlat bilan hamkorlik, mehnat bozori ehtiyojlari va istiqbollari, shuningdek aniqlangan ish o'rinlari toifalari, talab va sharoitlar bo'yicha "ombor kitobi"ni shakllantirib borish.	2026-yil davomida	Xorijiy ish beruvchilar bilan ishlash boshqarmasi
2.2.6.	Xorijiy ish beruvchi va rekruting kompaniyalari bilan imzolangan shartnomalar asosida aniqlangan bo'sh ish o'rinlarini to'g'risidagi ma'lumotlarni "Xorijda ish" platformasiga kiritib borish.	3 kun muddatda	Xorijiy ish beruvchilar bilan ishlash boshqarmasi

T/r	Tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
2.2.7.	Xorijiy mehnat bozorlari ehtiyojlari uchun haydovchilar (xalqaro standartlarga xos), shifokor/hamshiralalar (sog'liqni saqlashning xorijiy tizimlari), qurilish mutaxassislari (sertifikatlangan kasb ko'nikmalari) yetkazib berish hisobiga tashqi migratsiya takliflari modelini "xab"ga aylantirish.	2026-yil davomida	Xorijiy ish beruvchilar bilan ishlash boshqarmasi
2.2.8.	Slovakiya, Sloveniya, SAP, Bolgariya, Yaponiya, Germaniya, Rumuniya bozorlarini an'anaviy mehnat bozorlariga aylantirish; Portugaliya, Polsha, Ispaniya, Slovakiya, Italiya, AQSH, Fransiya mavsumiy mehnat bozorlarini yo'lga qo'yish; SAP, Quvayt (tibbiyot), Ummon (xizmatlar), BAA (haydovchilar), Qatar (mehmonxona va restoran ishi) kabi fors ko'rfazi mamlakatlari bilan hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish; Buyuk Britaniya va Kanada (qurilish), AQSH (tibbiyot), Isroil (qurilish va agrar soha), Shvetsiya va Finlyandiyada (xizmatlar) "pilot" yo'nalishlarni yo'lga qo'yish. (PA., 15.01.2026-y., 4-son videoselektor bayoni)	2026-yil davomida (tarmoq jadvallari asosida)	Xorijiy ish beruvchilar bilan ishlash boshqarmasi (Tashqi ishlar vazirligi, elchixonalar, konsulliklar bilan hamkorlikda)
2.2.9.	Italiya, Slovakiya, Portugaliya, Kanada, Fransiya va zaruratga qarab boshqa davlatlarda Agentlikning "Faxriy vakili"ni tayinlash tizimini joriy etish. Bunda, xorijiy davlatlarda yangi ish o'rinlarini aniqlash, vakolatli idoralar bilan muzokaralar olib borish, doimiy aloqa o'rnatish va O'zbekiston fuqarolariga huquqiy yordam ko'rsatishni ularning asosiy vazifasi etib belgilash. (PA., 15.01.2026-y., 4-son videoselektor bayoni)	2026-yil 15-fevral	Xorijiy ish beruvchilar bilan ishlash boshqarmasi (Tashqi ishlar vazirligi, bilan hamkorlikda)
2.3. Fuqarolarni (yoshlarni) chet tillariga o'qitish va xorijiy davlatlarga ishlashga maqsadli tayyorlash.			
2.3.1.	Xorijda ishlash istagini bildirgan fuqarolarni kasb-hunar va chet tillarga o'qitish bo'yicha Kasbiy ta'lim agentligi bilan hamkorlik doirasida 50 ming fuqaroni (22 mingga xotin-qizlar) o'qitishni tashkil etish. Bunda, yoshlarni xorijda zamonaviy kasb va yuqori daromadli ishlarda bandligini oshirish maqsadida, xorijiy tillarini o'qitishni kengaytirish choralari ko'rish. (VM., 10.12.2024-y., 136- bayon, 29.09.2025-y., 06/1-3288- topshiriq, 5.12.2025-y., 1-bayon)	2026-yil davomida (choraklar kesimida)	Fuqarolarni chet tillarga o'qitish va xorijiy davlatlarda ishlashga maqsadli tayyorlash markazi

T/r	Tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
2.3.2.	<p>Xorijiy davlatlarda aniqlangan bo'sh ish o'rinlari, ularga talab etiladigan kasblar va xorijiy tillar bo'yicha buyurtmalarni shakllantirish va Kasbiy ta'lim agentligiga taqdim etib borish. <i>(PF-190-son Farmon asosida, xorijiy ish beruvchilar ehtiyojidan kelib chiqib Kasbiy ta'lim agentligiga buyurtmalar kiritib borish).</i></p>	2026-yil davomida (tarmoq jadvallari asosida)	Fuqarolarni chet tillarga o'qitish va xorijiy davlatlarda ishlashga maqsadli tayyorlash markazi
2.3.3.	<p>Xorijiy tashkilotlar bilan fuqarolarni kasb va chet tillariga o'qitishni keng yo'lga qo'yish maqsadida qo'yidagilarni ta'minlash: 10 ta xorijiy hamkorlar bilan kelishuvlarga erishish; 25 ta o'quv kurslarini xalqaro hamkorlar bilan yo'lga qo'yish; 2 ta malakani baholash markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish; 5 ta kasbiy ixtisoslashtirilgan maktablarni ochish.</p>	2026-yil davomida (tarmoq jadvallari asosida)	Fuqarolarni chet tillarga o'qitish va xorijiy davlatlarda ishlashga maqsadli tayyorlash markazi
2.3.4.	<p>Istiqbolli hamkorlik loyihalarini amalga oshirish: "ASKANIA FUTURE" - (Germaniya, 500 nafar haydovchi); "RRG GmbH" - (Germaniya, 300 nafar qurilish mutaxassislari); "ARYA" markazi - (Turkiya, 300 nafar qurilish mutaxassislari); "PROUD PARTNERS" - (Yaponiya, 300 ta yuk mashinasi haydovchilari); "JOHO VENTURE" - (100 nafar lift xizmatchilari); "LATVIA CERTIFICATE CENTRE" - (avtokara haydovchilari, metallarga ishlov berish va payvandchilar malakasini baholash); kasbiy ta'lim tashkilotlari - kruiz kemalarida talab yuqori bo'lgan kasblar va xorijiy tillar bo'yicha o'quv kurslari ((VM., 22.10.2025-y., 95-son bayon)</p>	2026-yil davomida (tarmoq jadvallari asosida)	Fuqarolarni chet tillarga o'qitish va xorijiy davlatlarda ishlashga maqsadli tayyorlash markazi
2.3.5.	<p>Italiya qishloq xo'jaligi konfederatsiyasi ("Sonfagrisolura") va "Ummana" rekruting bilan O'zbekistonda traktor mashinistlari malakasini oshirish va bepul italiyan tiliga o'qitish kurslarini tashkil etish bo'yicha ishlarni amalga oshirish. <i>(VM. yo'l xaritasi, 28.08.2025-y., 30/1-246-son).</i></p>	2026-yil davomida (tarmoq jadvallari)	Fuqarolarni chet tillarga o'qitish va xorijiy davlatlarda ishlashga maqsadli tayyorlash markazi
2.3.6.	<p>Bolgariyaning "Glavbolgarstoy" qurilish tashkiloti byurtmasiga asosan Namangan (Chortoq tuman 1-son politexnikumi), Qashqadaryo (Shahrisabz sh., 1-son politexnikumi) va Xorazmda (Xorazm qurilish cha kommunal xo'jaligi texnikumi) 300 nafar quruvchilarni "kasb + til" shaklida maqsadli o'qitish. <i>(VM. yo'l xaritasi, 28.08.2025-y., 30/1-246-son).</i></p>	2026-yil davomida (tarmoq jadvallari asosida)	Fuqarolarni chet tillarga o'qitish va xorijiy davlatlarda ishlashga maqsadli tayyorlash markazi

T/r	Tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
2.3.7.	Tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlari va Jamoat salomatligi texnikumlarida SAP ish beruvchilari buyurtmasi asosida hamshiralarni ingliz tiliga o'qitish kurslarini yo'lga qo'yish va kelgusi yilda Fors ko'rfazi davlatlariga 2 ming fuqarolarni tibbiyot, qurilish va xizmat ko'rsatish sohalarida ishga joylashtirish.	2026-yil davomida (<i>tarmoq jadvallari asosida</i>)	Fuqarolarni chet tillarga o'qitish va xorijiy davlatlarda ishlashga maqsadli tayyorlash markazi, Hududiy filiallar bilan ishlash hamda tanlovlarga tashkiliy yordam ko'rsatish bo'limi
2.3.8.	Fuqarolarni xorijga ketishdan oldin ko'niktirish va o'qitish jarayonlariga jalb qilish (10 ming nafar); horijiy ish beruvchilar tanlovidan o'tgan fuqarolarni tibbiy yo'nalishlar bo'yicha shartnoma imzolangan tibbiyot muassasalarida kompleks tibbiy ko'rikdan o'tkazishni tashkillashtirish (5 ming).	2026-yil davomida	Fuqarolarni chet tillarga o'qitish va xorijiy davlatlarda ishlashga maqsadli tayyorlash markazi
2.3.9.	"SCILLS.XORIJDAISH.UZ" onlayn ta'lim platformasini orqali raqamli xizmatlarni kengaytirish: xorijiy tillar – ishchi vizasiga talab qilinadigan xorijiy tillar bilish darajasiga tayyorlov; safaroldi ko'niktirish – mehnat qonunchiligi, madaniyat, asosiy til ko'nikmalari va xavfsizlik qoidalari; SOFT SCILLS – muloqot, jamoaviy ishlash, muammo hal qilish va liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish.	2026-yil 1 choragi (<i>tarmoq jadvallari asosida</i>)	Fuqarolarni chet tillarga o'qitish va xorijiy davlatlarda ishlashga maqsadli tayyorlash markazi, AKT joriy etish va raqamlashtirish bo'limi
2.3.10.	Kasbiy ko'nikmalar markazining sobiq Uchtepa filiali binosida ta'mirlash ishlarini yakuniga yetkazish va Markaz boshqaruviga o'tkazish. Markazda payvandlash, yuk avtomobili va kara haydovchilari, santexnik, elektrik, mexatronika, metallarga ishlov berish, xizmat ko'rsatish, havozalar ustasi, hamshiralik kasblari bo'yicha o'quv kurslarini o'quv uskunalari bilan jihozlash; xalqaro viza va chet tillari imtihon markazlarini joylashtirish, xorijlik o'qituvchilarni jalb etgan holda qo'shma o'quv dasturlarini yo'lga qo'yish. (<i>VM., 22.10.2025-y., 95-son bayoni</i>)	2026-yil 1 choragi (<i>tarmoq jadvallari asosida</i>)	Fuqarolarni chet tillarga o'qitish va xorijiy davlatlarda ishlashga maqsadli tayyorlash markazi, Moddiy-texnik ta'minlash bo'limi
2.3.11.	Koreyaning "KIA auto-Q" kompaniyasi bilan birgalikda Migratsiya jang'armasi va xorijiy kompaniyalar mablag'lari hisobidan Toshkent shahridagi Kasbiy ko'nikmalar markazining Uchtepa filialida quvvati 300 kishiga mo'ljallangan Avtosanoat mutaxassislarini tayyorlash maktabi faoliyatini yo'lga qo'yish.	2026-yil 3 chorak	Moddiy-texnik ta'minlash bo'limi, Moliya-iqtisod bo'limi

T/r	Tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
2.3.12.	Xorijiy rekruting bilan hamkorlikda Termiz tumanidagi texnikum huzurida Yuk avtomobili haydovchilarini tayyorlash maktabini tashkil etish hamda nomzodlarning o'quv-amaliy mashg'ulotlari uchun avtodrom ochish choralarini ko'rish.	2026-yil 2 chorak	Moddiy-texnik ta'minlash bo'limi, Moliya-iqtisod bo'limi, Surxondaryo filiali
2.3.13.	Migratsiya jamg'armasi va mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan Jizzax shahri 1-son texnikumida quvvati 500 kishiga mo'ljallangan Xalqaro toifadagi kara haydovchilarini tayyorlash maktabini tashkil etish, maktabga birlashtirilgan o'quv xonalarini ta'mirlash va jihozlash, bo'sh turgan yarim gektar poligonda amaliy mashg'ulotlar maydonchasini qurish choralarini ko'rish.	2026-yil 2 chorak	Moddiy-texnik ta'minlash bo'limi, Moliya-iqtisod bo'limi, Jizzax filiali
2.4. Fuqarolarni xorijda ishga joylashtirish jarayonlarini muvofiqlashtirish.			
a). Tanlovlarni tashkil qilishda ko'maklashish.			
2.4.1.	Xorijiy ish beruvchilar bilan hamkorlik kelishuvlarini imzolash. ish o'rinlari va talablar ma'lumotlarini “Xorijda ish” dasturiga kiritish; ish o'rinlariga nomzodlarni ro'yxatga olish uchun CV (<i>“Curriculum Vitae”</i>) ma'lumotlari bazasini tashkil qilish. Tanlov jarayonlari shaffofligini ta'minlash maqsadida Migratsiya agentligi filiallariga, xususiy bandlik agentliklari va erkin ish qidiruvchi fuqarolarga CV ma'lumotlar bazasiga ma'lumotlarni kiritish imkoniyatini yaratish.	2026-yil yanvar oyidan (<i>tizimni takomillashtirib borish</i>)	Hududiy filiallar bilan ishlash hamda tanlovlarga tashkiliy yordam ko'rsatish bo'limi, AKT joriy etish va raqamlashtirish bo'limi, hududiy filiallar
2.4.2.	Xorijda ishga joylashgan fuqarolar hisobini yuritish, bunda: xorijiy hamkorlar uchun ochilgan akkaunt orqali ish o'rinlari bo'yicha qiziqish bildirgan nomzodlar “CV”larini ko'rish va tanlab olish imkoniyatini berish; “CV” mos kelgan nomzodlar bilan bog'lanish va suhbat o'tkazish; ish beruvchi va suhbatdan o'tgan nomzodlar bilan xorijda ishga joylashish uchun zarur hujjatlarni “xorijda ish” dasturi orqali almashish; ketish oldidan ko'niktiish kurslari va sertifikat berish; nomzodning o'zi yoki xususiy bandlik agentligi tomonidan “ishga joylashtirildi” maqomini tasdiqlash orqali unga sug'urta va ishga joylashgandan keyin kompensatsiyalar xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini yaratish; nomzodni xorijda ishga joylashtirish (<i>xorijiy ish beruvchi tasdiqlaydi va mehnat shartnomasi nusxasini yuklaydi</i>)	2026-yil yanvar oyidan (<i>kelgusida takomillashtirib borish</i>)	Hududiy filiallar bilan ishlash hamda tanlovlarga tashkiliy yordam ko'rsatish bo'limi, AKT joriy etish va raqamlashtirish bo'limi, hududiy filiallar

T/r	Tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
2.4.3.	<p>Xorijiy ish beruvchilar bilan tuzilgan kelishuvlarga asosan xorijda ishga joylashtirish ishlarini muvofiqlashtirish, qo'yidagilar orqali erishish: “CV” bazasini yuritilishini monitoringini olib borish; xorijda ishga joylashish bilan bog'liq, shu jumladan, “ishchi viza”ga oid hujjatlarini rasmiylashtirish bo'yicha bepul konsalting xizmatlarini ko'rsatish; xorijga ketish istagida bo'lgan va chet tillariga o'qitilgan fuqarolar ma'lumotlarini Agentlikning hududiy filiallari tomonidan manzilli ro'yxatlarni shakllantirilishi va “Xorijda ish” dasturiy majmuasiga kiritilishini nazorat qilish; “yangi sxema” bo'yicha fuqarolarni xorijda ishga joylashtirish bo'yicha tanlovlarni tashkil qilish va muvofiqlashtirib borish. “Xorijdaish” platformasida manzilli ro'yxatlari statistikasini shakllantirish. (PA., 15.01.2026-y., 4-son videoselektor bayoni), (MA., 15.12.2025-y., 83-son bayoni)</p>	2026-yil yanvar oyidan (tarmoq jadvallari asosida)	Hududiy filiallar bilan ishlash hamda tanlovlarga tashkiliy yordam ko'rsatish bo'limi, hududiy filiallar, xususiy bandlik agentliklari
2.4.4.	<p>Xususiy bandlik agentliklari, diplomatik vakolatxonalar yordamida xorijda 250 ming fuqaroni xavfsiz va qonuniy ishga joylashishiga ko'maklashish. (VM., 10.12.2024-y., 136-son, VM., 05.12.2025-y.. 1-son bayoni). Germaniyada 56 ming, Turkiyada 15 ming, Yaponiyada 14 ming, Latviyada va Litvada 3,5 - 4 ming, Belarussiyada 3,6 ming, Bolgariyada 2,5 ming, BAAda 1,5 ming ish o'rinlariga ishga joylashtirish bo'yicha 3 oylik reja ishlab chiqish va rahbariyatga kiritish. (Migratsiya agentligi 15.12.2025-y., 83-son bayoni)</p>	2026-yil davomida (tarmoq jadvallari asosida)	Hududiy filiallar bilan ishlash hamda tanlovlarga tashkiliy yordam ko'rsatish bo'limi, hududiy filiallar
2.4.5.	<p>Xorijga tashkillashtirilgan tarzda yuborilayotgan fuqarolarga qulaylik yaratish maqsadida hujjatlar to'plamlari va viza to'lovlarini chet davlatlar diplomatik vakolatxonalariga topshirishga, “Uzbekistan airways”AJ va boshqa aviakompaniyalar bilan hamkorlikda guruh sifatida aviachiptalarni xarid qilishda ko'maklashish. (VM., 22.10.2025-y., 95-son bayon)</p>	2026-yil davomida (tarmoq jadvallari asosida)	Hududiy filiallar bilan ishlash hamda tanlovlarga tashkiliy yordam ko'rsatish bo'limi, hududiy filiallar
b). Xususiy bandlik agentliklari (XBA) faoliyatini muvofiqlashtirish.			
2.4.6.	<p>XBA faoliyatini muvofiqlashtirish, metodik va huquqiy maslahat xizmatini ko'rsatish orqali faoliyati shaffofligi, samaradorligi, mehnat bozoridagi roli va hamkorligini kuchaytirish. Xususiy bandlik agentliklari xodimlarini tashkiliy ishga joylashtirish va fuqarolar bilan ishlash madaniyati bo'yicha o'qitish va malakasini oshirishni tashkil qilish.</p>	2026-yil davomida (tarmoq jadvallari)	Xususiy bandlik agentliklarini litsenziyalash va faoliyatini nazorat qilish bo'limi

T/r	Tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
2.4.7.	Qonuniy faoliyat yuritayotgan litsenziyaga ega xususiy bandlik agentliklari tomonidan xorijga tashkiliy tarzda ishga joylashtirilgan fuqarolar to'g'risidagi ma'lumotlarni “Xorijda ish” platformasiga kiritish bo'yicha kunlik nazoratga o'rnatish va xar oy yakuni bo'yicha rahbariyatga xisobot kiritib borish. (Migratsiya agentligi 15.12.2025-y., 83-son bayoni)	kunlik nazorat, har oy yakuni bo'yicha	Xususiy bandlik agentliklarini litsenziyalash va faoliyatini nazorat qilish bo'limi
2.4.8.	O'zbekistonning migratsiya salohiyatini keng targ'ib qilish maqsadida XBAlar uchun O'zbekistonda va xorijda ish beruvchilar ishtirokida “Job fair” tadbirlarni tashkil qilib borish.	reja-jadval asosida	Xususiy bandlik agentliklarini litsenziyalash va faoliyatini nazorat qilish bo'limi
2.4.9.	XBA lar uchun yagona axborot tizimini joriy etish: XBA larni yagona elektron axborot tizimiga ulash; bo'sh ish o'rinlari, ish izlovchilar va joylashtirish natijalari bo'yicha “onlayn” ma'lumotlar almashinuvini ta'minlash; XBA faoliyatini raqamlashtirishni kuchaytirish bo'yicha dastlab shartnomalarni tuzishda “Face ID” orqali tuzish va tizimini XBAlarga ham joriy etish.	2026-yil yanvar oyidan	Xususiy bandlik agentliklarini litsenziyalash va faoliyatini nazorat qilish bo'limi, AKT joriy etish va raqamlashtirish bo'limi, xususiy bandlik agentliklari
2.4.10.	Monitoring va reyting tizimini joriy etish: XBA lar faoliyati samaradorligini baholash (ishga joylashtirish ko'lami, sifati, barqarorlik, ularga nisbatan shikoyat va e'tirozlar); ochiq reyting tizimini e'lon qilib borish; past natija ko'rsatgan agentliklar faoliyatini rivojlantirishda ko'maklashish.	2026-yil yanvar oyidan	Xususiy bandlik agentliklarini litsenziyalash va faoliyatini nazorat qilish bo'limi, AKT joriy etish va raqamlashtirish bo'limi, Axborot xizmati
2.4.11.	Tashkiliy ishga joylashtirish va tanlovlar o'tkazish: xorijda aniqlangan ish o'rinlarini XBAlar o'rtasida ochiq tanlovlar asosida taqsimlab borish; Respublika hududlarida, ayniqsa XBA soni cheklangan hududlarda har oyda mehnat yarmarkalari tashkil etib borish; XBA yuborayotgan fuqarolarni o'qitish, ketishdan oldingi ko'niktirish va kasbiy tayyorgarligini oshirish yo'nalishlarida keng hamkorlik qilish; rasmiiy kanallar va OAVda axborot kampaniyalarini ta'minlash.	2026-yil yanvar oyidan	Hududiy filiallar bilan ishlash hamda tanlovlarga tashkiliy yordam ko'rsatish bo'limi, Xususiy bandlik agentliklarini litsenziyalash va faoliyatini nazorat qilish bo'limi, hududiy filiallar
v). Qonuniy mehnat migratsiyasini keng targ'ib qilish, norasmiy mehnat migratsiyasini oldini olish.			

T/r	Tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
2.4.12.	<p>Noqonuniy migratsiya va odam savdosiga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha axborot sessiyalarini tashkil etib borish.</p> <p>Targ'ibot-tashviqot ishlarini yanada kengaytirish, noqonuniy maqomda bo'lishning salbiy oqibatlari mavzusida ijtimoiy rolklarni ko'paytirish choralarini ko'rish.</p>	Reja asosida	<p>Axborot xizmati, Xalqaro hamkorlik va reytinglar bo'limi, Nizolarni sudgacha va sudda hal etish bo'limi, Xususiy bandlik agentliklarini litsenziyalash va faoliyatini nazorat qilish bo'limi, tarkibiy bo'linmalar</p>
2.4.13.	<p>Xorijiy tashkilotlarning buyurtmasi asosida nomzodlarni tanlab olish va yuborish jarayonlarida, ayniqsa Koreya, Buyuk Britaniyaga fuqarolarni tashkiliy yuborishda korrupsion holatlarga yo'l qo'yimaslik yuzasidan mas'uliyat kuchaytirish</p>	2026-yil davomida	Komplayens nazorat
2.4.14.	<p>Qonuniy mehnat migratsiyasi sohasida xususiy bandlik agentliklari roli va o'rnini to'g'risida keng targ'ibot qilish;</p> <p>XBAlar ishtirokida eng ko'p uchraydigan holatlar va savollarga kichik "podkastlar" olish, rasmiy kanallar va OAV orqali chiqishlar; xorijga ishga joylashtirishda ijobiy natijalarga va keng auditoriyalarga ega XBA intervyularini tashkil qilib borish.</p>	2026-yil fevral oyidan	<p>Xususiy bandlik agentliklarini litsenziyalash va faoliyatini nazorat qilish bo'limi, Axborot xizmati, xususiy bandlik agentliklari</p>
2.4.15.	<p>Noqonuniy migratsiya oqimini kamaytirish:</p> <p>xorijda noqonuniy maqomda bo'lish holatlari monitoringi va "Migratsiya - mahalla - fuqaro" tizimini kengaytirib borish; fuqarolarning bo'lib turgan davlati qonunchiligi va shartnoma shartlarini buzganligi holati yuzasidan tegishli choralar ko'rish tizimini yanada kuchaytirish; O'zbekiston imijiga salbiy ta'sir etadigan holatlar oldini olish, fuqarolarga shartnoma intizomiga rioya qilish bo'yicha ta'sirchan tadbirlarni amalga oshirish.</p>	2026-yil davomida (tarmoq jadvallari)	<p>Nizolarni sudgacha va sudda hal etish bo'limi, hududiy filiallar</p>
2.4.16.	<p>Xorijda ishga joylashtirish bilan shug'ullanayotgan "konsalting"lar faoliyatiga chek qo'yish, litsenziya asosida faoliyat ko'rsatishlariga erishish:</p> <p>qonun talablariga zid ravishda xizmat ko'rsatayotgan tashkilotlar faoliyatini tekshirish va ularga qonunchilikda belgilangan choralarni ko'rishni keskin oshirish; qonunchilikda noqonuniy migratsiya oldini olish va uni tashkillashtirish uchun jazo choralari kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish va jarayonda faol ishtirok etish.</p>	2026-yil davomida	<p>Nizolarni sudgacha va sudda hal etish bo'limi, Xususiy bandlik agentliklarini litsenziyalash va faoliyatini nazorat qilish bo'limi, Yuridik bo'lim</p>

T/r	Tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
2.5. Xorijda vatandoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda Agentlikning xorijiy davlatlardagi vakolatxona (vakillik)lari faoliyatini takomillashtirish tadbirlari.			
a). Huquqiy, moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash instrumentlarini kengaytirish.			
2.5.1.	Xorijdagi vatandoshlarimiz huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish. (“Uztelecom Call center info”, <i>Im.mehnat.uz</i> , “Labour Migration Feedback”, @huquqiy_yordam_uz.bot va boshqa aloqa kanallari orqali Agentlikka tushadigan kelib murojaatlar bo'yicha ularning muammolarini tezkor ravishda hal qilish choralari ko'rish).	2026-yil davomida (KPI ko'rsatkichlar doirasida)	Huquqiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'limi, Axborot-komminukatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'limi, xorijdagi vakolatxonalar
2.5.2.	Xorijda murakkab moliyaviy ahvolda va yashash uchun mablag'siz qolgan fuqarolarga moddiy yordam, hamkorlar va vatandoshlar ko'magida ijtimoiy-moddiy va huquqiy yordam ko'lamini kengaytirib borish.	KPI ko'rsatkichlar doirasida	Huquqiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'limi, xorijdagi vakolatxonalar
2.5.3.	Turli sabablar bilan ish joyidan ayrilgan vatandoshlarga xorijiy ish beruvchilarda mavjud bo'lgan ish o'rnlarga joylashtirish orqali ijtimoiy yordamlar ko'lamini oshirish.	KPI ko'rsatkichlar doirasida	Huquqiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'limi, xorijdagi vakolatxonalar
2.5.4.	Xorijiy mamlakatlarda turli sabablar tufayli og'ir vaziyatga tushib qolayotgan fuqarolarga ko'mak ko'rsatish, diplomatik vakolatxonalar bilan hamkorlikda ishlash, sayyor qabullar tashkil etish hamda muammolarni bartaraf etishda amaliy yordam berish.	tarmoq jadvallari asosida	Huquqiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'limi, xorijdagi vakolatxonalar
b). Xorijdagi vatandoshlar va oila a'zolariga ijtimoiy g'amburlik va qo'llab-quvvatlash tadbirlari.			
2.5.5.	2025-yildagi “Vatanga qaytarish” nomli xayriya aksiyasi doirasida xorijda qiyin ahvolga tushib qolgan hamyurtlarimizni vatanga qaytarish tadbirlarini joriy yilda davom ettirish.	2026-yil davomida (Instansiya bilan kelishuvga ko'ra)	Xorijiy vakolatxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va fuqarolar manfaatlarini himoya qilish boshqarmasi, xorijdagi vakolatxonalar

T/r	Tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
2.5.6.	“O‘zbekiston – insonlari e‘zozlangan yurt” shiori ostida Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Turkiyada bo‘lib turgan vatandoshlarimiz bilan uchrashuvlar o‘tkazish.	2026-yil davomida (Instansiya bilan kelishuvga ko‘ra)	Xorijiy vakolatxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va fuqarolar manfaatlarini himoya qilish boshqarmasi, xorijdagi vakolatxonalar
2.5.7.	“Navro‘z” va “Mustaqillik” umumxalq bayramlari munosabati bilan xorijdagi vatandoshlarimiz uchun uchrashuv va bayram tadbirlarini tashkil qilish.	2026-yil davomida (Instansiya bilan kelishuvga ko‘ra)	Xorijiy vakolatxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va fuqarolar manfaatlarini himoya qilish boshqarmasi, xorijdagi vakolatxonalar
2.5.8	Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan va ta‘lim jarayonlarida ishtirok etayotgan faol yoshlar ishtirokida “Zakovat” intellektual loyihalarini amalga oshirish.	2026-yil davomida (kelishuvga ko‘ra)	Xorijiy vakolatxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va fuqarolar manfaatlarini himoya qilish boshqarmasi, xorijdagi vakolatxonalar
c). Agentlikning xorijiy davlatlardagi vakolatxonalari faoliyatini takomillashtirish.			
2.5.9.	Migratsiya agentligining vakolatxona (vakil)lari tashkil etiladigan davlatlar sonini 4 tadan 9 taga yetkazish. (“O‘zbekiston-2030” strategiyasi 95-maqsadi, VM., 10.12.2024-y., 136-son bayon)	TIV orqali, xorij tomoni bilan kelishuvga ko‘ra	Xorijiy vakolatxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va fuqarolar manfaatlarini himoya qilish boshqarmasi
2.5.10.	Migratsiya agentligining Rossiya Federatsiyasi mintaqalaridagi vakillarini Sankt-Peterburg, Qozon, Yekaterinburg, Novosibirsk, Rostov-na-Donu va Vladivostok shaharlaridagi Bosh konsulxonalar binosiga joylashtirish, vakillarni konsulxonaning ma‘muriy-texnik xodimi sifatida akkreditatsiyadan o‘tkazish choralarini ko‘rish. (VM., 22.10.2025-y., 95-son bayon)	2026-yil 1 choragi (kelishuvga ko‘ra)	Xorijiy vakolatxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va fuqarolar manfaatlarini himoya qilish boshqarmasi, Rossiya Federatsiyasidagi vakolatxona (TIV bilan hamkorlikda)
2.5.11.	Vakolatxonalar va vakillar faoliyatini o‘rganish va amaliy yordam ko‘rsatish maqsadida (ish yuritish va moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga boshqa muhim yo‘nalishlari) 2026-yil davomida Agentlik Ishchi guruhining xizmat safarini tashkil etish.	reja-jadval asosida	Xorijiy vakolatxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va fuqarolar manfaatlarini himoya qilish boshqarmasi, Moliya iqtisod bo‘limi, Ichki audit xizmati,

T/r	Tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
			Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi, Yuridik bo'limi, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'limi, xoriydagi vakolatxonalar
2.5.12.	Vatandoshlar va o'zbek diasporasi bilan xoriydagi fuqarolarimizni qo'llab-quvvatlash, huquq va manfaatlarini himoya qilishda hamkorlikni rivojlantirish choralarini ko'rish.	<i>doimiy ravishda</i>	Xoriydagi vakolatxonalar bilan ishlash bo'limi, xoriydagi vakolatxonalar
2.5.13.	Rossiya Federatsiyasining barcha federal okrugida vatandoshlarimiz huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini kengaytirish maqsadida advokatlar va yuridik tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish.	2026-yil davomida (kelishuvga ko'ra)	Xorijiy vakolatxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va fuqarolar manfaatlarini himoya qilish boshqarmasi, Yuridik bo'limi, Moliya iqtisod bo'limi, xoriydagi vakolatxonalar
2.5.14.	Xoriydagi elchixona va konsullik idoralari bilan birgalikda aniq davlat mehnat bozori va migratsion holatini o'rganish va mehnat migrantlarini qo'llab-quvvatlash sohasida hamkorlik o'rnatish.	<i>doimiy ravishda</i>	Xoriydagi vakolatxonalar bilan ishlash bo'limi, xoriydagi vakolatxonalar
2.5.15.	Xorijiy davlatlarda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekistonlik vatandoshlarni aniqlash, ro'yxatlarini shakllantirish va “Xorijda ish” elektron platformasiga kiritish.	<i>doimiy ravishda</i>	Xorijiy vakolatxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va fuqarolar manfaatlarini himoya qilish boshqarmasi, xoriydagi vakolatxonalar
2.5.16.	Vakolatxonalar faoliyati yuzasidan oylik, choraklik va yillik hisobotlarini qabul qilish va mehnat migratsiyasi holati, mehnat migrantlarini qo'llab-quvvatlash va ularning huquqlarini himoya qilish sohasida amalga oshirilgan ishlar haqida yig'ma-tahliliy ma'lumot olish va umumlashtirish.	har oy, chorak va 2026-yil yakuni bilan	Xorijiy vakolatxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va fuqarolar manfaatlarini himoya qilish boshqarmasi, Xoriydagi vakolatxonalar bilan ishlash bo'limi, xoriydagi vakolatxonalar
2.5.17.	Migratsiya agentligining xorijiy davlatlardagi vakolatxonalari faoliyati va ular tomonidan fuqarolarga ko'rsatilayotgan xizmatlarni rasmiy kanallarda yoritib borish.	Media reja asosida	Axborot xizmati, xoriydagi vakolatxonalar

2.6. Tashqi mehnat migratsiyasi sohasidagi xizmatlarni raqamlashtirish.

T/r	Tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
2.6.1.	Sohaning asosiy biznes jarayonlarini o'z ichiga olgan barcha modullar asosida "Xorijda ish" axborot tizimining yangi talqinini ishga tushirish.	<i>tarmoq jadvali</i>	AKT joriy etish va raqamlashtirish bo'limi
2.6.2.	Agentlik faoliyatida sun'iy intellektni joriy etish: fuqarolarni baholash va ishga tayyorlik darajasini aniqlash; hujjatlarni avtomat tekshirish (<i>pasport, shartnoma, viza va h.k.</i>); ish beruvchi talabiga muvofiqlikni aniqlash (<i>vakansiya va nomzodlarni moslash</i>); mehnat migrantlari faoliyatini kuzatish va tahlil qilish; yordamga muhtoj fuqarolarni oldindan aniqlash (<i>huquqiy, moddiy, ijtimoiy yordam talab etiladigan holatlar</i>); reintegratsiya samaradorligini prognoz qilish (<i>qaytgan fuqarolarni mehnat bozoriga qaytishini baholash</i>); litsenziya va shartnomalarning rioya etilishini monitoring qilish.	<i>tarmoq jadvali asosida</i>	AKT joriy etish va raqamlashtirish bo'limi
III. OAV va jamoatchilik bilan aloqalar, targ'ibot-tashviqot ishlarini kengaytirish.			
3.1.	Xorijiy mamlakatlarda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish tartibi, bunda xususiy sektor roli, yangi "sxema"ga ko'ra yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlar to'g'risida chet davlatlarning mehnat migratsiya to'g'risidagi qonun hujjatlari mohiyatini yoritish (<i>OAV, Agentlik rasmiy kanallari orqali</i>). Xorijga ishlash istagidagi yoki xorijda bo'lib turgan fuqarolar uchun amalda mavjud bo'lgan qo'llab-quvvatlash tizimlari to'g'risida qisqa, mazmunli, media mahsulotlarini ishlab chiqish va keng jamoatchilikka tarqatilishini ta'minlash. (<i>Migratsiya agentligi 15.12.2025-y., 83-son bayoni</i>)	doimiy	Axborot xizmati, boshqarma va bo'limlari bilan hamkorlikda
3.2.	Migratsiyasi sohasiga oid muhim masalalar va amalga oshirilayotgan ishlarga bag'ishlangan matbuot anjumani va brifinglar tashkil etish.	<i>media-reja asosida</i>	Axborot xizmati, boshqarma va bo'limlari
3.3.	Axborot xizmatining media targ'ibot va jamoatchilik bilan aloqalarni mustahkamlash bo'yicha kreativ rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish: Axborot xizmatini risklarni boshqaruvchi strategik markazga aylantirish; Noqonuniy migratsiyaga qarshi preventiv media-kontent (" <i>Bir qaror - bir taqdir</i> " <i>real keyslar seriyasi berib boriladi</i>); "Havfli taklif" kontenti (<i>ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan shubhali ish takliflarini tahlil qilish va nega xavfli ekanligini tushuntirish</i>);	<i>ish reja va tarmoq jadvali (kompleks yondashuv)</i>	Axborot xizmati, boshqarma va bo'limlari bilan hamkorlikda

T/r	Tadbirlar nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	<p>OAV va blogerlar uchun media-turlar (“Men rasmiy yo‘lni tanladim”, “Sen ketyapsan-tekshirdingmi” media-kampaniyalari orqali tartibli migratsiya mohiyati xorijda ishlayotgan fuqarolarning qisqa intervyularida ochib beriladi); ichki signalizatsiya (tarmoqlarda Agentlik faoliyatiga oid tanqidiy negativlarni oldindan aniqlash tizimi, monitoring va krizis kommunikatsiyasi); rasmiy axborot kanallari brendini himoya qilish.</p>		
3..4.	<p>Xorijdagi o‘zbekistonlik mehnat migrantlari yashash va ish sharoitlarini o‘rganish, Migratsiya agentligi tomonidan fuqarolarga ko‘rsatilayotgan xizmatlarni targ‘ib qilish maqsadida press-turlar tashkil etish (delegatsiya va ishchi guruhlari tarkibida)</p>	media-reja asosida	Axborot xizmati, Xalqaro hamkorlik va reytinglar bo‘limi, xorijdagi vakolatxonalar
3.5.	<p>Xorijiy OAV bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda xorijiy davlatlarda O‘zbekistondagi mehnat migratsiyasi tizimi to‘g‘risida turkum maqolalar chop etish (har chorakda kamida 5 ta).</p>	media-reja asosida	Axborot xizmati, boshqarma va bo‘limlari